

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

_____ 202_ y.

"Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va yengil sanoati)" yo'nalishi bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o'quv dasturi
(oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan nomutaxassis kadrlar uchun)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

Tuzuvchilar:

“Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” moduli:
TATU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi direktori, p.f.d., prof.
F.M. Zakirova, TATU huzuridagi PKQT va MO tarmoq markazi
dotsenti, t.f.n. V.A. Karimova.

“Umumkasbiy tayyorgarlik” bloki modullari: TDTU, “Hayot
faoliyati xavfsizligi” kafedrası professor, t.f.n. M.N. Musayev, TDTU,
“Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası dotsenti, PhD, SH.Narziyev,
TTYESI, “Mehnat muhofazasi va ekologiya” kafedrası dotsenti
I.Axmedov, TTYESI, “Mehnat muhofazasi va ekologiya” kafedrası
dotsenti, t.f.n. Y.Maxmudov.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha: TTYESI, “Mehnat muhofazasi va
ekologiya” kafedrası professori, t.f.d. O.M.Yo'ldosheva, TTYESI,
“Mehnat muhofazasi va ekologiya” kafedrası dotsenti I.Axmedov,
O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in
xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot
instituti boshlig'ining o'rinbosari, t.f.d., katta ilmiy xodim
SH.Kuranbayev, TDTU, “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası
professor, t.f.n. M.N. Musayev, TDTU, “Hayot faoliyati xavfsizligi”
kafedrası katta o'qituvchisi F.Xamidullayev.

Taqrizchilar:

t.f.d., prof. O.Yuldoshev - Hayot faoliyati xavfsizligi akademiyasining
akademigi.

t.f.d. B. Ibragimov - O'zbekiston Respublikasi Yong'in xavfsizligi
akademiyasi akademigi.

*O'quv dasturi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining
Ilmiy kengashida tasdiqqa tavsiya qilingan. (2021 yil _____
_____ dagi _____ - sonli bayonnoma)*

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 14-sentabrdagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida kasbiy (pedagogik) qayta tayyorlash kurslari faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida"gi 479-sonli buyrug'ida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan nomutaxassis pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlash kursi uchun mo'ljallangan o'quv reja asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, muhandislik va kompyuter grafikasi, elektrotexnika va elektronika, tabiiy tolalarni dastlabki ishlash, metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari, mehnat muhofazasining xuquqiy asoslari, favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi, radiatsiya xavfsizligi, to'qimachilik mahsulotlari texnologik va jihozlari, yong'in va yonish-portlash xavfsizligi, texnika xavfsizligi, hayot faoliyat xavfsizligi, mehnat muhofazasi, bino va inshootlar xavfsizligi usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" yo'nalishida pedagog kadrlarning ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etish, asosiy texnika xavfsizligi talablari asosida faoliyatni amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish, yong'in chiqish sabablari, ularni oldini olish va o'chirishning tashkiliy va texnik vositalaridan foydalanish, favqulodda vaziyatlarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish tamoyillari, uslublari va vositalarini ishlatish hamda bu bilimlarni talabalarga o'qitish bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, yangilash va rivojlantirishdan borat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘nalishi fanlarini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish;
- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘nalishida xorij texnologiyalaridan keng foydalanish;
- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘nalishida zamonaviy texnika va texnologiyalar xavfsizligi tahlillarini amalda qo‘llash,
- yong‘inga qarshi kurash xizmatini tashkil qilishni amalga oshirish;
- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘nalishidagi innovatsiyalarni o‘zlashtirish;
- jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsata olish va bu jarayonlarni o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llashning samarali metod va vositalaridan foydalanish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- xorijiy davlatlardagi kredit ta‘lim tizimlarini;
- ta‘lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslarini;
- ta‘lim jarayonlarida raqamli texnologiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;
- sanoat korxonalaridan ajralib chiqadigan zararli moddalar, ularning hajmi va tarkibini;
- insonning hayotiy faoliyati davomida uchraydigan xavf-xatarlarini;
- korxonadagi umumiy gigiyenik holatini;
- O‘zbekiston Respublikasi, hamdo‘stlik davlatlari, boshqa etakchi davlatlardagi fuqaro muhofazasining hozirgi paytdagi masalalarini;
- aholi muhofazasi sohasi bo‘yicha ilmiy-tekshirish ishlaridagi asosiy yo‘nalishlarini;
- ionlashtiruvchi nurlanishlar manbalari bilan ishlaganda ko‘riladigan xavfsizlik talablarini;
- radiatsiyaviy xavfsizlikni ta‘minlovchi jamoa va shaxsiy himoya qilish vositalarini;
- radiatsiyaviy xavfsizlik bo‘yicha asosiy meyoriy-huquqiy hujjatlarini;
- nurlanish olish hodisasining yuzaga kelishining oldini olish usullarini;
- paxtachilik, to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari, O‘zbekiston Respublikasida va rivojlangan davlatlarda to‘qimachilik sanoatining rivojlanishini;
- ipakchilik sanoatining rivojlanishi, ularning istiqboldagi taraqqiyotini;

- to'quvchilik korxonalarida texnologik ketma-ketlik jarayonlarini;
- trikotaj texnologiyasiga oid asosiy tushunchalarni;
- sanoat korxonalaridan ajralib chiqadigan zararli moddalar, ularning hajmi va tarkibini;

- insonning hayotiy faoliyati davomida uchraydigan xavf-xatarlarni;
- korxonadagi umumiy gigiyenik holatni;
- zararli moddalar manbai, ularga qarshi kurash usullarini;
- mehnatni muhofaza qilish haqidagi qonunlar va huquqiy xujjatlarni;
- inson organizmining tashqi va ichki sezgi a'zolari ishini;
- zararli moddalarning ekologik vaziyatga ta'sirini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish;
- pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish;
- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini tashkil etish;

- shaxsiy va jamoa muhofaza vositalarini ishlatish;
- iqtisodiyot obyektlarini, shaharlarni seysmik va yong'inga qarshi mustahkamligining uslub va usullarini oshirish;

- fuqaro muhofazasi tuzilmalarida o'qishlarni tashkil etish va o'tkazish;
- ionlashtiruvchi nurlanishlarni aniqlash;
- radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari, uslublari va vositalarini tahlil qilish;

- faoliyatning radiatsiyaviy xavfsiz sharoitlarini ta'minlash;
- yigirish sistemalarini va texnologik uskunalarni ishlatish;
- halqali va pnevmomexanik yigirish mashinalarini ishlatish;
- iplarni pishitishga tayyorlash va iplarni qo'shib o'rash;
- tut ipak qurti pillalasini tayyorlash;
- pillani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlaridan foydalanish;
- turli to'quv va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish;
- zararli moddalar manbai, ularga qarshi kurash;
- baxtsiz hodisalar ro'y berganda ularni rasmiylashtirish;
- zararli moddalarni bartaraf qilish;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlovchilar uchun qulay sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaratish;

- og'ir jismoniy kuch sarflanadigan mehnat turlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, ish jarayonida yuzaga keladigan salbiy xavf-xatarlarni yo'qotish chora-tadbirlarini amalga oshirish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish;
- ta'lim natijalarini baholash;
- masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish;
- baxtsiz hodisalarni oldini olish;
- texnologik jarayonni xavfsiz boshqara olish;
- zararli moddalar miqdorini o'lchay olish va sanitariya meyorlariga solishtirib, hulosa chiqara olish;
- favqulodda vaziyatlarda foydalaniladigan shaxsiy muhofaza vositalarini amaliyotda qo'llash;
- radiatsiyaviy avariyaning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilish;
- farmakologik muhofazalash;
- aholini tezkor evakuatsiya qilish;
- nurlanish olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish;
- dezaktivatsiya o'tkazish;
- radiatsiyaviy avariyalarda insonlar va moddiy boyliklarni saqlash va qutqarish vositalarini ishlatish;
- ip xossalarini bashorat qilish;
- ta'minlagich, avtomatik toytitgich, dastlabki tozalagich, nafis tozalash va aerodinamik tozalash mashinalari boshqarish;
- halqali va pnevmomexanik yigirish mashinalarini boshqarish;
- to'qimachilik matolarini fizik-mexanik xossalarini aniqlay bilish;
- to'qimalarni taqqoslab amaliy jihatdan tahlil etish;
- zamonaviy to'quv mashina va jihozlarini tanlash, ulardan foydalanish;
- to'qimachilik sanoatining (yigiruv, to'quvchilik, trikotaj, pardozlash va tukuv) jarayonlaridagi mashina va dastgohlarni xavfsizlik tadbirlari amal qilish;
- yo'riqnomalarni sifatli o'tkazish;
- ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, talafotlarni kamaytirish (yumshatish) va oqibatlarini bartaraf etish;
- bino, inshootlarni xavfsiz ekspluatatsiya sharoitlarini ta'minlash *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlaridan samarali foydalanish;
- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish;
- korxonalar va muassasalarda fuqaro muhofazasini tashkil etish;
- favqulodda vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish;

- aholi va moddiy boyliklar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
 - to'qimachilikda tavsiya etilgan texnologiyalar tarkibini tanlash;
 - texnologik jarayonlarni nazorat qilish va kompyuterlashtirilgan texnologik uskunalarni tanlay olish;
 - atrof-muhitga chiqadigan zararlarni meyorlash va standart bo'yicha baholash;
 - insonning ish qobiliyatini oshirish va mehnat unumdorligini ta'minlash;
 - aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni amalda qo'llash
- kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Kurs hajmi

Kasbiy qayta tayyorlash kursi 864 auditoriya soatni tashkil etadi. Qayta tayyorlashning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari to'g'risida"gi 25-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi Diplom beriladi.

"MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI (PAXTA, TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOATI)" QAYTA TAYYORLASH KURSI O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

I. Umumiy tayyorgarlik

1.1. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. «Elektron universitet» va uning xususiyatlari.

Vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga joriy etish. Masofaviy ta'lim platformalari va ulardan foydalanib, ta'lim jarayonlarini tashkil etish.

Ta'lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini takomillashtirish.

Multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish.

Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

II. Umumkasbiy tayyorgarlik

2.1. Soxaga kirish

Yuqori malakali mutaxassislarni o'qitish jarayonining tuzulishi va mazmuni. Oliy ta'lim bosqichlari. Bakalavriyat va magistratura haqida tushuncha. Toshkent

to'qimachilik va yengil sanoat instituti tarkibiy qismi va bo'limlari. Talabalarning huquq va majburiyatlari. O'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning huquqlari va vazifalari. Talabalarning o'quv ishlarini nazorat qilish, bilimlarini tekshirish va baholash. Talabalar mustaqil ishlarining shakllari va usullari o'quv fanlariga doir axborotlarni bibliografik qidirish. O'zbekiston respublikasida to'qimachilik va yengil sanoat sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Hayotiy xavfsizlikni ta'minlashni davr talabi. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida. Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari texnologiyasi va jihozlari xavfsizligini ta'minlash. Ishlab chiqarishdagi sanoat korxonalarining sanitariya va gigiyenasi. To'qimachilik sanoat korxonalari ishchi va xodimlarining fizologiyasi va psixologiyasi. Mehnatni iqtisodiy jarayon va ijtimoiy munosabat sifatida foydalanishi. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish bilimlarni sinash to'g'risida. Sanoat korxonalarining bino va inshootlarining xavfsizligini ta'minlash. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni va xodimlarni salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida. To'qimachilik sanoat korxonalari ishchi va xodimlariga birinchi yordam ko'rsatish to'g'risida. Korxonalarda yong'inga qarshi ishlarni tashkil qilish.

Talabalarni o'quv faoliyatini tashkil etishni o'rganish va talabalar uchun kerakli meyoriy hujjatlar bilan tanishtirish. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi moddalarini bilan tanishish va o'rganish. Mehnat iqtisodiy jarayon va ijtimoiy munosabat sifatida ifodalanish. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish masalalari bilan tanishish va o'rganish. Tabiiy talalarni dastlabki ishlash jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini o'rganish. Yigirish jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini o'rganish. Ipak tolalarini ishlab chiqarish ishlash jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini o'rganish. To'qima va trikotaj matosini ishlab chiqarish jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini o'rganish. Matoni pardoqlash jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini o'rganish. Tikuv buyumlarini texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini o'rganish. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni va xodimlarni salomatligini boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarori bilan tanishish.

2.2. Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari.

Hayot faoliyati xavfsizligi nazariy asoslari" fan sifatida jamiyatdagi o'mi. Odam va uning yashash muhiti orasidagi munosabat. Hayotiy faoliyat xavfsizligi nazariy asoslarining tushuncha va qoidalari. Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash prinsip, usul va vositalari. Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlashda inson omili. Sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlar xavfsizligi asoslari. Uskuna va texnologik jarayonlarining xavfsizlik ekspertizasi. Xavflar kvantifikatsiyasi. Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari

texnologiyasi va jihozlari xavfsizligini ta'minlash. Ishlab chiqarishdagi sanoat korxonalarining sanitariya va gigiyenasi. To'qimachlik sanoat korxonalari ishchi va xodimlarining fiziologiyasi va psixologiyasi. Xavflar ro'yxati (nomenklaturasi). Ishlab chiqarish sexlarini shamollatish va ititish. Zararli chiqindilarni so'rib olish va havoni tozalash. Shovqin va titrashdan himoyalaniish. Yorug'lik klassifikatsiyasi. Bosim ostida ishlaydigan idish va apparatlarni xavfsiz ishlashini ta'minlash. Yuk ko'tarish, tashish mexanizmlarini xavfsiz ishlashini ta'minlash. Elektr xavfsizligi. Xavfsizlik madaniyatining inson jamiyatdagi o'rni.

Xavflarning xususiyatlarini va guruhlanishini o'rganish. Maqbul tavakkal konsepsiyasining mohiyatini o'rganish. Tizimliy tahlilda ko'llaniladigan logik amallar va hodisalar belgilarini o'rganish. Baxtsiz hodisani tahlil qilish uchun "Sabablar va xavflar daraxti"ni qurishni o'rganish. "Inson va ishlab chiqarish" tizimini dekompozitsiyalash. Xavfsizlikni loyihalash va tahlil qilishning uslubiy-logik ketma-ketligi. Ma'lumotlarni aks ettirish vositalari. Operatorning ish joyini tashkil qilish. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining xavfliik darajasini tahlil qilish. Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini ta'minlash. Yigirish jarayonidagi texnika texnologiyalar bilan tanishish va ularni xavfsizligini ta'minlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni va xodimlarni salomatligini boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi" 286 - son qarori bilan tanishish. Jamiyatda ilmiy-texnik va axborot (informatsiya) sohasidagi xavf turlari. Jamiyatda siyosiy va harbiy xavfsizlik masalalari.

Tabiiy yoritilganlikni tadqiq qilish. Sun'iy yoritilganlikni tadqiq qilish. Tuproqning solishtirma qarshiligini aniqlash. Ish yuzalari titrashini tadqiq qilish. Shovqinni yutish va to'sish tadbirlari samaradorligini aniqlash. Havo quvurlarida harakatlanayotgan havoning miqdorini o'lchash. Suyuqliklarning chaqnash haroratlarini tadqiq qilish. Shikastlangan kishilarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish. Dastlabki o't o'chiruvchi vositalar. Ishlab chiqarish xonalari uchun havo almashtirishlarni hisoblash. Bino va inshootlarni yashindan himoyalash. Ishlab chiqarishda baxtsiz va ishlovchilar sog'lig'iga zarar keltiruvchi boshqa hodisalarni taftish qilish. Ishlab chiqarishda jarohatlarning statistik ko'rsatkichlarini hisoblash. Shaxsiy himoya vositalari o'rganish. Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligidan himoyalaniish.

2.3. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari

"Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari" fanining rivojlanishi va ahamiyati. O'zbekiston respublikasi metrologik xizmati. Metrologiya sohasida ishlatiladigan birliklar, o'lchash vositalari va standart namunalari ustidan tekshiruv nazoratini olib borish. Tekshirish turlari, o'lchash vositalarini metrologik attestatsiyalash, qiyoslash va kalibrlash tizimi. Fizikaviy kattaliklarning birliklar tizimi. O'zbekiston respublikasi standartlashtirish Davlat tizimi. Standartlashtirishning asosiy qonun qoidalari. Standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati. Standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan

o'tkazish sertifikatlashtirishning ahamiyati. Mahsulotni sinash va sertifikatlash. Sertifikatlashtirish haqida ma'lumot. Sertifikatlashtirish sxemalari. Sertifikatlashtirishda tekshiruvchan nazorat va sertifikatsiyalashtirish natijalari haqida ma'lumot. Sinov laboratoriyasini akkreditlashtirish.

Sinov yo'li bilan olingan natijalarni baholash usuli. Og'irlik kvadratlarining asosiy metrologik xususiyati o'rganish. RM-3-1 uzish mashinasining asosiy metrologik xususiyatini o'rganish. Statimat-S ipni uzish mashinasining asosiy metrologik xususiyatlarini o'rganish. AG-1 gazlamani uzish mashinasining asosiy metrologik xususiyatlarini o'rganish. Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. Sifat tizimini sertifikatlashtirish. Paxta tolasini sertifikatlashtirishga tayyorlash. Paxta tolasini sertifikatlashtirish. To'qimachilik mahsulotlarini sertifikatlashtirish: to'qimachilik iplarini sertifikatlashtirish. To'qimachilik matolarini sertifikatlashtirish.

2.4. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi.

Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlar muhofazasi. Favqulotda vaziyatlar davlat zuilmasi organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish bo'yicha faoliyati. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari. Ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlari. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tashkil etish. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash. "Halokatlar tibbiyoti" xizmatini tashkil etish. Aholi va hududlarni terroristik harakatlardan muhofaza qilish. Ommaviy qirg'in qurollari, ularning ta'sir omillari va talofatlari. Potensial xavfli obyektlar, ulardagi avariya. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari. Yuqumli kasallik turlari, tasnifi.

"Favqulodda vaziyatlar va aholi muhofazasi" fanining maqsad va vazifalari. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining vazifalari, aholining fuqaro muhofazasi sohasidagi huquq va majburiyatlari. Favqulodda vaziyatlarning tasnifi va tavsifi. Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tartibi. Xalqaro tajribani amaliyotga joriy qilish. Respublikamizda favqulodda vaziyatlarda aholi muhofazasini ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohatlar. Favqulotda vaziyatlar davlat zuilmasi kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tadbirlari. Favqulotda vaziyatlar davlat zuilmasi faoliyat olib borish rejimlari va bu rejimlarda rahbar xodimlarning o'zaro hamkorligi. Favqulotda vaziyatlar davlat zuilmasini aholini muhofaza qilishda tutgan o'zni. Tabiiy ofatlar oqibatlariga qarshi chora-tadbirlari. Tabiiy ofatlar o'choqlarida qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarni olib borish. Texnogen favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda kimyoviy holatni aniqlash va baholash qoidalari. Texnogen favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va birlamchi tiklov ishlarni tashkil etish. Yer atmosferasining tarkibiy qismlari va tuzilishi. Aholi muhofazasining mashqlarini (zilzila davrida xatti-harakatlar va xavfsiz zonalarga evakuatsiya qilish). Gidrometrologik xavfli xodisalarni tahlil qilish. Epidemiya va turli xil yuqumli kasalliklardan aholini muhofaza qilish tadbirlari.

Aholini fuqaro muhofazasiga o'qitish va qayta tayyorlash. Iqtisodiyot tarmoqlari barqarorligini ta'minlashda muhandislik-texnik kompleks tadbirlarni o'tkazishni o'rganish. Radiatsiyaviy holatni aniqlash va baholash qoidalari. Favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot tarmoqlarining barqarorligini ta'minlash va oshirish. Aholini himoya qilish usullari: ogohlantirish, evakuatsiya omillari va shaxsiy saqlovchi vositalar qo'llanishi. Iqtisodiyot tarmoqlarida aholi muhofazasini tashkillashtirish. Ekologik muhit buzilishining asosiy sabablari. Terrorizm va aholi muhofazasi. Turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish. Yer osti pana joylarini tashkil qilish. Ijtimoiy favqulidda vaziyatlar va axborot xavfsizligi. Shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanishni o'rganish. Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda razvedka va qutqaruv ishlarini tashkil etishni o'rganish. Qutqaruv ishlari olib borishni o'rganish. Fuqaro muhofazasi kunlari tadbirlarini tashkil etish va o'ttkazishni o'rganish (Zilzila davrida xatti-harakatlar va xavfsiz zonalarga evakuatsiya qilish).

2.5. Radiatsiya xavfsizligi.

Radiatsiya xavfsizligi fanining maqsadi, vazifalari va o'rganish obyektlari. Radiatsiya xavfsizligining huquqiy asoslari. Radiatsiyaviy xavfsizlik borasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar. Atom va atom yadrosi to'g'risida umumiy tushunchalar. Radiativ nuklidlar. Yadroviy parchalanish. Radioaktiv parchalanish qonuni. Ionlashtiruvchi nurlanishlar manbalari klassifikatsiyasi. Radiativ nurlanishlarning odam organizmiga ta'siri. Dozimetriyaning vazifasi. Radiatsiyaviy nazorat metodlari va vositalari. Kundalik faoliyat sharoitida ionlashtiruvchi nurlanishlardan muhofazalash. Radiatsiyaviy xavfli obyektlarning aholi uchun potensial xavflilik darajasi bo'yicha klassifikatsiyasi. Atom elektr stansiyalaridagi avariyaalar. Radioaktiv avariya natijasida yuzaga keladigan radioaktiv ifloslanish zonasining parametrlarini hisoblash. Radiativ ifloslanish zonasiga tushub qolgan xodimlar va aholining shikastlanish miqdorini prognozlash. Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda aholini va hududlarni muhofazalash prinsiplari. Shaxsiy muhofaza vositalari: shaxsiy muhofazalashning mohiyati, nafas olish organlarini muhofazalash vositalari, terini muhofazalash vositalari.

Radiativlikni, aktivlikni, nurlanish dozasini o'lchash birliklarini o'rganish. Radiometrlar va rengenometrlarning tuzilishi va o'lchash prinsipini o'rganish. Nuqtaviy izotop manbadan yassi to'siq bilan muhofazalanishni hisoblash. Radiatsiyaviy nurlanish olganda birinchi tibbiy yordam berish usullarini o'rganish. Jamoaviy muhofazalash vositalarining turlarini, tuzilish va ulardagi texnik qurilmalarga qo'yiladigan talablarni o'rganish. Radiatsiyaviy avariyaalar oqibatini hisoblash. Radiativ moddalarni atrof-muhitga chiqarib yuborilganda yuzaga keladigan holatni aniqlash. Yadroviy portlashdan keyin radiatsiyaviy holatni baholash metodikasini o'rganish. Radiativ moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishlar turlarini va xususiyatlarini o'rganish. Odamlarda nurlanish olish darajasiga bog'liq ravishda yuzaga keladigan nurlanish kasalligining birlamchi rivojlanishi, shakli va og'irlik darajasi holatlarini o'rganish. Shaxsiy dozimetrlarning tuzilishi va ishlash prinsipini o'rganish. Radiatsiyaviy avariya

sodir bo'lganda aholini muhofazalash vositalarini o'rganish. Radiatsiyaviy ifloslanish xavfi ostida odamlarni evakuatsiya qilish qoidalarini va tartibini o'rganish. Radiatsiyaviy holatni baholash va radiatsiyaviy ifloslanish xavfi ostida korxonani muhofazalash rejimini aniqlash. Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda aholini va hududlarni muhofazalash metodlari.

Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda aholini va hududlarni muhofazalash chora – tadbirlari. Radiatsion avariya ta'sirida ifloslangan hududlarda o'tkaziladigan tadbirlar chegaralari va xarakterlari. Dezaktivizatsiya o'tkazish qoidalari va tartibi. Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda xabar(signal) berish. Evakuatsiyaga tayyorlash va evakuatsiya. Radiativ zararlangan hududlarda aholini yashashi. Zararsizlantirishning ochiq va yopiq sikllari. Bino va inshootlarni zararsizlantirish. Radiatsiya va nur kasalligi to'g'risida tushuncha. Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) va uning vazifalari. Moddadagi zaryadlangan zarrachalarni tormozlash. α -nurlanishning xususiyati. Radiativ moddalarning aktivligi. Radiometriya. Texnogen ionlashtiruvchi manbalar. DNK nima va uning nurlanishga munosabati to'g'risida. Ionlashtiruvchi nurlanishlar dozimetriyasi metodlari. Ionlashtiruvchi nurlanishdan muhofaza inshootlari va vositalari to'g'risida.

III. Mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik

3.1. Yong'in va yonish-portlash xavfsizligi.

Yong'in va portlash xavfsizligi faniga kirish. Yong'in xavfsizligi sohasidagi qonunchilik bazasi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash asoslari. Yonish jarayoni, turlari va yonish shartlari haqida umumiy tushuncha. Yonishning fizik kimyoviy asoslari. Modda va materiallarning portlash-yonish xavfini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Gazsimon moddalarning yonish va portlash xususiyatlari va himoyalash usullari. Changlarning yonishi va portlash xususiyatlari. Korxoning yong'in xavfsizligi masalalari. Ishlab chiqarishlarning yong'in xavfini tavsiflovchi (belgilab beruvchi) asosiy omillar. Ishlab chiqarish korhonalari elektr toki (qurilmalari) dan yong'in chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari. Yashin va uning yong'in xavfi. Korhonalardagi muhandislik kommunikatsiyalarining yong'in xavfi. Yong'indan saqlash xizmati, uning turlari, asosiy vazifalari. Davlat yong'indan saqlash xizmati. Korxonalarda yong'indan saqlash xizmatini tashkil etish. Obyektlardagi yong'in-texnika komissiyalari. Yong'inga qarshi kurash jamiyati. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati. Modda va materiallarni saqlashda yong'in xavfsizligi choralari. Modda va materiallarning yonuvchanlik bo'yicha guruhlanishi. Bino va inshootlar konstruktiv elementlarining olovga chidamliligi, vchidamlilik chegaralari. Yog'och konstruksiyalarni yong'indan himoyalash usullari. Materiallarning olovga chidamliligini oshirish yo'llari. Bosim ostida ishlatdigan idishlarni ishlatishda xavfsizligini ta'minlash. Suyultirilgan va yuqori bosimdagi gazlarni saqlash va tashish ballonlari. Bosim ostida ishlovchi idishlarning saqlovchi qurilmalari. Bosim ostida ishlaydigan idishlarni yong'in-portlashga qarshi texnik holati. Bosim ostida ishlaydigan idishlarni xavfsiz ishlatish vositalari. Texnologik jarayonlarda yong'in xavfsizligi. Ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarning yong'in

xavfsizligini ta'minlash. Evakuatsiya yo'llariga qo'yiladigan yong'inga qarshi talablar. Yong'inga qarshi himoya tizimlari. Yong'inga qarshi suv ta'minoti. Yong'in o'chirish qurilmalari. Korxonalarda yong'in xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslari. Korxonalarda Yong'inga qarshi chora-tadbirlar. Yong'in vaqtida aholining harakati va amalga oshiriladigan harakatlar.

